

ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA RETSEPTIV-ESTETIK
TAMOYILLAR

Abdulaziz Qosimov

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

*Germaniyaning German Sparkassenstiftung for
International Cooperation tashkiloti*

*Davlat idoralari bilan aloqalar bo‘yicha
milliy ekspert*

abdulaziz.qosimov@sparkassenstiftung.de

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy adabiyotshunoslikdagi ba’zi retseptiv-estetik omillar va tamoyillar o‘zbek hamda nemis adabiyoti asarlari misolida tushuntirib beriladi. XX asrning birinchi yarmida yashab, ijod qilgan nemis hamda o‘zbek yozuvchilari retseptiv-estetik tamoyillarga ko‘ra, tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Scientific turn (ilmiy burilish), adabiyot sotsiologiyasi, retseptiv-estetik tamoyil, retsepsiya, surgun adabiyot, vayronagarchilik adabiyoti.*

Annotation: *The article explains some receptive-aesthetic factors and principles of modern literature on the example of Uzbek and German literature. German and Uzbek writers of the first half of the XX century are analyzed according to receptive-aesthetic principles.*

Key words: *Scientific turn, sociology of literature, receptive-aesthetic principle, reception, exile literature, destructive literature.*

Jahon adabiyotida XX asrning boshlarida turli adabiy oqimlar, yangicha qarashlar bilan bir qatorda, turli ilmiy yo‘nalishlar ham yuzaga keldi. Bu ilmiy yo‘nalishlar badiiy adabiyotni va adabiyotshunoslikni boshqa sohalar bilan chambarchas bog‘ladi. Scientific turn (ilmiy burilish) sifatida e’tirof etilgan adabiyot sotsiologiyasi[Baasner / Zens. 1:225] adabiyotshunoslik va sotsiologiyani birlashtirdi. Adabiyot sotsiologiyasining adabiyotni muhokama qilishda ijtimoiy muammolarni ham qamrab oladigan yondashuvlarini boshqa yo‘nalishlardan farqlash har doim ham oson emas. “Misol uchun, adabiyot sotsiologiyasi ko‘plab sohalarda adabiyotning ijtimoiy tarixi bilan raqobatlashadi, garchi ular umumiy predmet va konseptual asoslarga ega bo‘lsa ham, ikkalasi bir-biriga tegishli, deyish mumkin emas”[Baasner / Zens.1:226]. Ikkalasi ham adabiyot yaratgan va samarali bo‘lgan ijtimoiy kontekstni tekshiradi hamda ular ishtirokchi yoki aloqaga qaratilgan, katta tizim nazariyalari yoki faqat oddiy diapazon modellari bo‘lsin, sotsiologik nazariyalarga tayanadi. Ularni farqlashning asoslari tegishli nuqtayi nazardan kelib chiqadi: adabiyotda boshqa sohalardagi kabi ijtimoiy ta’sir sifatida namoyon bo‘ladigan holatlar birinchi o‘rinda turishi kerakmi yoki adabiyot tushunchasi badiiylik, polisemiya bilan bog‘liq bo‘lsa va o‘z-o‘ziga murojaat qilish boshqa o‘zaro ta’sir shakllaridan farq qiladigan, mustaqil bo‘lgan narsalarga e’tibor qaratish kerakmi? Adabiyot sotsiologiyasi asosan savolning birinchi qismiga moyil bo‘lsa, adabiyotning ijtimoiy tarixi ikkinchisini ham tez-tez hisobga oladi.

Zamonaviy adabiyotda shu qadar ko‘p tendensiyalar mavjudki, ularni aniqroq qilib tasvirlash qiyin bo‘ladi. Shuning uchun, beozor, nisbatan noaniq va hamma narsani qamrab oladigan atamani tanlaydilar. Taxminan 1900-yildan boshlanadigan zamonaviy davr 2013-yilga qadar cho‘ziladi. Ammo zamonaviy adabiy davr aniq qachon boshlanib, qachon tugashi to‘g‘risida bir to‘xtamga kelingani ham yo‘q. Davr adabiyoti turli xil ta’sirlar natijasida shakllandi.

Stilistik erkinlik zamonaviy adabiy davrning muhim xususiyatiga aylandi. Muallif sifatida til chegaralari sinovdan o‘tkazilib, g‘ayrioddiy lingvistik, stilistik vositalardan foydalanildi. Mualliflar endi umumiy til shaklini saqlab qolmasdan, balki o‘z tashvishlari uchun shakllantirilgan mustaqil lisoniy vositalarni ishlab chiqdilar.

XX asr boshlarida jadid adabiyoti sifatida maydonga kelgan yangi o‘zbek adabiyoti ulug‘ shoiru yozuvchilarni yetishtirib berdiki, ularning asarlari va erishgan ijodiy yutuqlari nafaqat yangi o‘zbek adabiyoti, balki jahon adabiyoti taraqqiyotiga ham hissa bo‘lib qo‘shildi. O‘zbek adabiyot maydoniga jadid adabiyoti (1900–1919), proletar adabiyot (1919–1933), sotsialistik realizm adabiyoti (1934–1960) chiqib keldi. Yevropada esa ikkinchi jahon urushining oxirida, 1933-1945-yillar oralig‘ida paydo bo‘lgan, “Surgun adabiyot”ning adabiy shakllari yuzaga keldi. Buning davomida urushdan keyingi adabiyot “Vayronagarchilik adabiyoti” haqida ham so‘z yuritildi.

1900-yildan boshlangan zamonaviy nemis adabiyotining mashhur adiblari sirasiga, o‘zbek o‘quvchisiga, adabiyoti va adabiyotshunosligiga biroz bo‘lsa-da tanish, asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan, “O‘zbekiston fuqaro”ligiga qisman qabul qilingan, Tomas Mann (1875 – 1955), Hermann Hesse (1877 – 1962), Frans Kafka (1883 – 1924), Bertold Brext (1898 – 1956), Haynrix Byoll (1917 – 1985)lar ham kiradi.

Ko‘pchilik biror sohada o‘zgarishlar bo‘lsa, zamon bilan bog‘lashni juda ma’qul ko‘radi. Adabiyot va adabiyotshunoslikda ham o‘zgarishlar bo‘lishi tabiiy, zamon bilan hamohanglik ham muhim. Turli adabiy yo‘nalishlar, qarashlar, an’analar badiiy asarlarni shunday sinovlardan o‘tkazadiki, undan o‘tgan yozuvchi-yu shoirlar hamda ularning asarlarigina keyingi bosqich va avlod o‘quvchisiga bezarar o‘taveradi. Buning uchun milliy adabiy jarayon aktyorlari (ishtirokchilari) tashabbus ko‘rsatishlari kerak. Jarayondagi har bir yangilik, o‘zgarish obyektiv baholab borilsa, o‘sha millat adabiyotidagi rivojlanish tezda e’tiborni tortadi, albatta. Hozirgi nemis nasridagi an’ana va yangilanishlarga o‘z munosabatini bildirgan professor Shavkat Karimov nemis adabiyotining jahonda haqli ravishda nasrda ijod qiluvchi adiblari bilan peshqadam o‘rinlardan birini egallashini ta’kidlab o‘tadi[Karimov.Sh. 3:136-139]. Darhaqiqat, nemis adabiyoti adiblarining asarlari

insoniyat ma’naviy kamolotiga, ularni yuksak axloqiy mezonlar vositasida tarbiyalashga qaratilgan. Adabiy an’analarni davom ettirishda yangicha metod yoki uslubni tanlagan yozuvchi va shoirlargina retsepsiya bosqichlarining barcha pog‘onalariga mos ravishda tahlil, talqin, tanqid qilinaveradi. Bu biror joyda yozilmagan va isbot talab qilmaydigan aksiomadir.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida aynan retsepsiya deb yuritilmasa-da, lekin jarayonning ma’lum bosqichlari tahlillarda o‘z aksini topayotgani diqqatga sazovordir. Akademik Naim Karimov Cho‘lpon, Oybek, Hamid Olimjon[Karimov.N. 2:464] kabi buyuk so‘z san’ati vakillarining shaxsiyati va ijodining tahlili bilan bevosita shug‘ullanib, tarixiy retsepsiyaning bir qator tamoyillariga mos ravishda roman, monografiya hamda maqolalar yozdi. Professor Nusratullo Jumaxo‘ja Alisher Navoiyning “Qaro ko‘zum...” g‘azali tadqiqini muvaffaqiyatli amalga oshirgan holda, birgina g‘azal atrofida o‘n besh nafar yetakchi olimlarning fikrlarini jamlashi orqali, adabiyotshunoslikda ichki retsepsiyaning qanchalik ahamiyatga molikligi namoyon bo‘ldi. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni Akrom Malik tomonidan tahlil qilinib, dostonning matni o‘rganildi, sharhlandi, nasriy bayoni berildi, lug‘ati tartiblashtirildi. Bu kabi ichki retsepsiya jarayoni mukammalashgani sari, asarning mohiyati ochilib boraveradi. Yozuvchi va o‘quvchi o‘rtasida badiiy muloqot tezlashaveradi. Retsestiv-estetika, hermenevtik yondashuv kabi yangicha yo‘llar orqali bir millat adabiyoti jahon adabiyoti bilan uzviy aloqa bog‘laydi. Islomshunos olim, sharqshunos Martin Hartmann(1851-1918)ning Hermann Vamberi(1832-1913)dan keyin eski o‘zbek tili (chig‘atoy) bilan shug‘ullanish asnosida o‘zbek mumtoz adabiyotidan, xususan, Navoiy, Mashrab, Huvaydo g‘azallarini tarjima qilib, retsepsiyaning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Ma’lumki, Y.G.Herder, G.E.Lessing, Y.V.Gyote, F. Shiller, H.Hayne, B. Brext kabi nemis adabiyotining buyuk namoyandalari xalq ozodlik kurashi, ideal insonlarning hayoti bilan chambarchas bog‘langan adabiy asarlari orqali jahon xalqlari madaniyati va adabiyoti rivojiga hissa qo‘shdilar. Bu zabardast yozuvchilar nemis millatining faxri va g‘ururi hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmida yashab, ijod qilgan Xaynrix Byoll (1917-1985 (Nobel mukofoti sovrindori)), Gyunter Grass (1927-2015 (Nobel mukofoti sovrindori)), Krista Volf (1929-2011), Ulrix Plensdorf (1934-2007) va aksariyati XXI asrda ham o‘z ijodlarini davom ettirib kelayotgan Xerta Myuller (Nobel mukofoti sovrindori), Patrik Zyuskind, Daniel Kelmann, Jenni Erpenbek, Tamara Bax kabi yozuvchilar ham adabiy an’analarga va ko‘p yillik tajribalarga sodiq qolgan. Ular o‘z asarlarida hayot voqeliklarini realistik va romantik tamoyillar asosida tasvirlab, demokratik, gumanistik an’analarga davom ettirilayotganiga guvoh bo‘lish mumkin. Professor Shavkat Karimov har bir

adibning o‘ziga xos yo‘nalishlari va mavzulariga to‘xtalar ekan, o‘quvchi uchun muhim bo‘lgan jihatlarni alohida tahlil qilib, bir qator nemis adiblariga adabiyotshunosning retseptiv munosabatini ifodalaydi [Karimov.Sh. 3:136-139]: Nobel mukofotiga sazovor ko‘rilgan Haynrix Byoll urush fojeasini mohirlik bilan tasvirlovchi nasrnavis, dramaturg ekanligi e‘tirof etiladi; yana bir Nobel mukofotini olgan nemis adibi Gyunter Grass o‘zining “Tunuka tog‘ora” romani orqali “to‘q qora bo‘yoqlardagi hikoyalarda tarixning unutilgan qiyofasi ifodalagan”ligi alohida eslanadi; Krista Volf o‘zining “Bo‘lingan samo” asarida shakl va mazmun mushtarakligiga – ravon til va tabiiy mazmunga erishgan; Ulrix Plensdorfning “Yosh Verterning yangi iztiroblari” asari kitobxonlar e‘tiboriga tushdi. Keyinchalik bu kitob sahna asari sifatida yana shuhrat qozondi; Nobel mukofotiga loyiq ko‘rilgan Herta Myuller “hamma narsadan bebahra kishilar hayotining nasrdagi ifodasi va badiiyati” uchun taqdirlanayotganini bejiz ta’kidlamagan. Xerta Myullerning bolalik ongida saqlanib qolgan qo‘rquv, umidsizlik, bolalarcha kuzatishlar jamlanmasi sifatida “Pastqamlik” romani “qaychilanadi” va “tahrir qilinadi”; Germaniyada chiqadigan adabiy nashrlar mutaxassislarining ta’kidlashicha, nemiszabon adiblar orasida hech kim Patrik Zyuskindchalik mashhur va manzur bo‘lmagan. Uning “Ifor” romani, adabiyotshunoslar fikricha, Yevropa adabiyotini tubdan o‘zgartirgan asarlar qatoridan joy olgan. Zyuskind romanini o‘z ona tilida o‘qigan chet ellik o‘quvchi hayrat bilan “*Zyuskindning nemisligini bilib hayratga tushdim. U shunaqa fransuzcha roman yozibdiki, ajablanmay ilojing yo‘q. Yo‘q, voqealar Fransiyada bo‘lgani uchun emas, asarning ruhi fransuzcha. Asardan nozik fransuzcha tuyg‘u ufurib turibdi,*” [Karimov.Sh. 3:136-139]-degan edi. Asarda xayolot olami va realizm uddaburonlik bilan omuxta qilingan. Jahon adabiyotida urf bo‘lgan ana’anaviy mezonlar qonuniyatiga mos kelmaydigan “Ifor” romani ((Süskind, Patrick. Das Parfum. Die Geschichte eines Mörders – Patrik Zyuskind. Ifor. Bir mahkum qissasi) rus tilidan Gulbahor Said G‘ani tarjimasini) qahramoni Jan Batist Grenuy betakror shaxs, ammo uni yovuz va jirkanch mahluq deb ta’riflaydilar, uni risoladagidek odam deb atash ham qiyin.

Daniel Kelmann, Jenni Erpenbek, Tamara Bax kabi yosh yozuvchilar ham hayot voqeligini, insoniyatni o‘ylantirayotgan, tashvishlantirayotgan muammolarni aks ettirishda an’anaviy badiiy yo‘nalishlardan keng foydalanib kelishmoqda. Shuningdek ularning asarlari ham nafaqat Germaniya, balki boshqa mamlakatlardagi o‘quvchilarning ham diqqat-e‘tiborini tortmoqda. Buning asl sababi ular o‘z asarlarida qahramonlarining ichki dunyosini, kechinmalarini hayotiy tarzda ochib berib, psixoanalitika yo‘nalishida tahlil olib borishga imkon yaratganlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baasner/ Zens: Methoden und Modelle der Literaturwissenschaft /eine Einführung/, Berlin, Erich Schmidt – Verlag, 2001. – S. 272.
2. Karimov N. Cho‘lpon / – T.: Sharq, 2003. – 464 b.
3. Karimov Sh. Hozirgi nemis nasri: an’ana va yangilanishlar. // Jahon adabiyoti, 2012. 12-son 136-139- betlar.